

Iqtidorli yoshlar Respublika forumi

Men "Gidromelioratsiya" fakulteti "Suv xo'jaligi va melioratsiya" yo'nalishi 201-guruh talabasi Jalilov Sirojiddinman. 2018-yil 15-oktabr kuni Toshkent shahri Yoshlar ijod saroyida o'tkazilgan "Iqtidorli yoshlar Respublika forumi" innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash va ularni moddiy ta'minlash to'g'risidagi forumida o'z innovatsion g'oyam bilan ishtirok etdim. O'z loyihamni rivojlantirish, uni amaliyotga taqdim etish uchun bir qancha maslahatlar oldim. Shu bilan birgalikda "Start-up" loyhasida qatnashish uchun bir muncha o'zimni qiziqtirgan savollarga javob oldim va boshqa ixtirochi talabalar bilan o'z fikrimizni almashdik.

Forum yakunida o'z oldimga bir necha maqsadlarni qo'ydim, ya'ni bu institutimiz hududida "Yoshlar Ittifoqi" qoshida "Yosh innovatorlar" jamoasini tuzish va uni shakillantirishdir. Bu guruhga barcha innovatsion g'oyalarga qiziqqan va yangiliklarga intiluvchan talabalarni taklif etaman.

Bu guruhda ular birgalikda yangidan yangi g'oyalar ustida ishlashi, o'z bilimlarini mustahkamlashi, yurtimiz yoki boshqa davlatlarda bo'layotgan innovatsion yangiliklardan xabardor bo'lishi va o'zi ham qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Eng muhimi, shundaki siz bu jamoaga qabul qilinishingiz uchun, sizdan faqat tashabbuskorlik va qiziqishning o'zi yetarli bo'ladi.

Ma'lumot uchun: +99897 761-03-55ga telefon qilishingiz mumkin.



Jalilov Sirojiddin (Gidromelioratsiya fakulteti talabasi)